

NEMIS XALQIDA “CHO‘QINTIRISH” MAROSIMI

Zilola Pazilova

Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi, f.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: mazkur maqolada nemis xalqida farzand dunyoga kelganida qo‘llanuvchi amallar, poklanish va ruh bilan to‘ldirishning boshlang‘ich marosimi bo‘lgan cho‘qintirish leksik birligi “suvga cho‘mdirish” (Taufen) urf-odati, uning qanday o‘tkazilishi atroflicha tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Cho‘qintirish leksik birligi, suvga cho‘mish “Taufen” ifodasi, “cho‘qintiradigan ota” (Pate-kryostniy otets), “cho‘qintiradigan ona” (Patin-kryostnaya mat)

Annotation: this article analyzes in detail the tradition of the “baptism” (Taufen) of the lexical unit of purification, the initial ritual of purification and soul-filling, which is used in the German people when a child is born.

Keywords: Lexical unit of immersion, expression of baptism “Taufen”, “godfather” (Pate-kryostnyotets), “godmother” (Patin-kryostnaya mat)

Аннотация: В этой статье подробно анализируется традиция “Крещения” (taufen), лексической единицы крещения, которая является начальным ритуалом очищения и наполнения духом, практикуемым немецким народом при рождении ребенка, и как она проводится.

Ключевые слова: лексическая единица крещения, выражение крещения “Тауфен”, “Крестный отец” (паштет-крыстный отец), “крестная мать” (Патин-крыстная мат)

Nemis xalqida cho‘qintirish – cherkovning eng muhim ibodatlarini sirasiga kiradi. Xristian dinining katolik va evangelik mazhablariga ko‘ra, inson xudoning nazarida bo‘lishini anglatuvchi udum va marosim sanaladi. Cho‘qintirilgan chaqaloq nasroniy hisoblanadi. “Cho‘qintirish” (Taufen) so‘zi qadimgi yahudiylar tilida “yuvish, tozalash”, nemis tilida esa “suvga botirish” degan ma‘noni anglatadi. Qadimda yahudiylar yahudiy dinini qabul qilmoqchi bo‘lgan prozelitlar deb ataladigan budparastlarni suvga cho‘mdirishgan. Suvga cho‘mdiruvchi Yahyo alayhissalom tavba bilan poklanish sifatida suvga

cho‘mishni taklif qiladi va odamlarni gunohsiz yangi hayot boshlashga undaydi. Shuningdek, u Iso Masihni suvga cho‘mdirgani aytiladi. Muqaddas kitobda yozilishicha, Iso Iordaniyadan chiqqanida muqaddas ruh kabutar misoli osmondan tushgani aytiladi. Uning o‘limidan keyin Masih shogirdlari zimmasiga yuklangan buyruq bilan yer yuzidagi barcha insonlarni suvga cho‘mdirish uchun zohir bo‘ladi. Nasroniylar cherkovi suvga cho‘mgan odamning gunohlari kechiriladi va unga yangi hayotda qayta tug‘ilish imkoni beriladi deb tushunib kelganlar. [1,120]

Ko‘rinadiki, *cho‘qintirish* leksemasi mazkur mazhab uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir mazhab muqaddas sanalgan marosimni o‘zgacha bir tarzda bajarib kelgan. „Suvga cho‘mish“ (Taufen) masihiylarning umumiy marosimi hisoblanganligi sababli, u asosiy shaklni saqlaydigan va toza qalbli inson tomonidan amalga oshirilishi mumkin deb hisoblashgan. Biroq ko‘p hollarda marosim ruhoniy tomonidan o‘tkazilishi, nasroniylar e‘tiqodiga ko‘ra, suvga cho‘mish muqaddas inoyatni ato etgani va shu bilan qalbni yangi, abadiy hayot bilan to‘ldirganligi sababli, u faqat cho‘qintirilmagan odamlarda amalga oshirilishi va takrorlanishi mumkin bo‘lmagan. [2,224]

Bu udum ikkala cherkov tomonidan ham tan olingan. Farzandini cho‘qintirmoqchi bo‘lgan otaning qaroriga hech kim to‘sqinlik qilolmasligi, dunyoga kelgan farzand ota-onasining dinlari bir xil bo‘lishi va ular turmush qurgan bo‘lishlari ham shart emasligi va yolg‘iz ota-onalar ham farzandini cho‘qintirishi mumkinligi aytib o‘tilgan.

Xristian cherkovi udumlari bo‘yicha, juftlikning biri evangelik cherkovning a‘zosi va cho‘qintirilgan bo‘lishi kerakligi, katolik e‘tiqodga ko‘ra esa ota-ona qaysi dinga mansub bo‘lishidan qat’iy nazar, ular ham cho‘qintirilishi mumkinligi, bolaning xristian tarbiyasiga ko‘ra kamol topishida, unga g‘amxo‘rlik qilishda cho‘qintirgan ota ham katta mas’uliyatga egaligi muhim sanaladi. [3,121]

Ota-onalar bajonidil “cho‘qintiradigan ota” (Pate-kryostniy otets) va “cho‘qintiradigan ona” ni (Patin-kryostnaya mat) oila a‘zolaridan yoki do‘stlari

orasidan tanlab olishlari mumkin. Lekin katolik cherkovda cho‘qintiruvchi ota-onalar ham katolik bo‘lishlari kerak, boshqa din sohiblari esa bu marosimda faqat guvoh sifatida ishtirok etishlari mumkin. Tadqiqotlar mobaynida bir federal o‘lka cherkovining qoidalari boshqasidan tubdan farq qilishi mumkinligi aniqlandi.

Aksariyat hollarda bolalar 3 oylikdan 8 oylik bo‘lgunlariga qadar cho‘qintirilishlari mumkin. Yangi tendensiyaga ko‘ra esa, bola voqea-hodisani ongli his qila oladigan yoshda bo‘lishi kerakligi ta’kidlab kelinmoqda.

Cherkovga kirmaydigan ota-onalar bolalarini cho‘qintirishlari mumkin, lekin katolik ruhoniylar cho‘qintirishni ortga surishi va ota-ona bilan ularning cherkovga kirmaslik sabablarini muhokama qilishi mumkin. Har qanday holatda ham ruhoniylar cho‘qintirishdan bosh torta olmaydi.

Ma’lumki, chaqaloqning dunyoga kelishi yana bir yangi insonning yer yuziga qadam qo‘yayotganidan darakdir. Ushbu jarayon barcha xalqlarda bugungi kunda ham mo‘jiza sanaladi, tug‘ilgan kun qadimdan qadrlangan va hozirda ham bayram sifatida nishonlanadi.

Quyidagi misolda fermer xo‘jaligidan tashqarida ishlab yurgan otaga farzandi tug‘ilganini e’lon qilish uchun uning xizmatkorlari qo‘ng‘iroq qilganligi, ular kostryulkalar, qo‘ng‘iroqlar yoki xushtaklar bilan shovqin-suron qilib, uni uyga kuzatib qo‘yishgani, bolani tan olish uchun ota pechka skameykasiga yotqizilgan chaqaloqni ko‘targani, yangi tug‘ilgan chaqaloqning birinchi hammomida ramziy ahamiyatga ega bo‘lgan turli xil narsalar, masalan, tanga, tasbeh va qizlar uchun g‘altak qo‘yilgani, tanga bir kambag‘al kishiga berilishi, hammom suvi bolaning hayot daraxti ostiga quyilishi va bu o‘g‘il bolalar uchun olma, qizlar uchun nok daraxti bo‘lishi lozimligi aytiladi.

Farzand dunyoga kelgach, unga ism qo‘yilib, ota, shifokor, doya yoki ona bir hafta davomida fuqarolik holati aktlarini qayd qilish bo‘limida ro‘yxatga qo‘yadi. So‘nggi bir necha o‘n yillardan buyon tug‘ilgan kunni nishonlash ko‘pchilikka rasm bo‘lib qolayotgan urf-odatga aylanmoqda. Ilgari chaqaloqlar tug‘ilishi bilanoq emas, balki cho‘qintiriladigan kundan boshlab ism bilan

chaqirilgan. Bolaga ism esa uning cho‘qintirgan otasi yoki onasi, ota-onasi va bobo-buvilarining ismini, katolik yurtlarda esa tug‘ilgan yoki cho‘qintiriladigan kunda muqaddas kitobda berilgan avliyoning ismini ham qo‘yish mumkinligi ta’kidlanadi.

O‘zbek va nemis tillari urf-odatlarini paradigmasida quyidagilarni alohida belgilash mumkin: urf-odatlarining aksariyati kishilarning hayot belgilari – tug‘ilish yoki o‘lim bilan aloqador bo‘ladi. Bunda tana va ruh tushunchalari mavjud bo‘lib, urf-odatlar, marosimlarning ko‘pchiligi ruh tarbiyasi bilan bog‘liqdir.

Muayyan bir xalq urf-odatlarining majmui bo‘lgan etnomadaniyat shu xalqning ijtimoiy munosabatlarida odat, udumga aylangan jarayonlar bo‘lib, bu tushunchalar tilda lug‘aviy birliklar orqali namoyon bo‘ladi. Urf-odat nomlari, o‘z navbatida, mazkur xalqning madaniyati, turmush tarzi, urf-odatlarini ifoda etuvchi vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fischer A. Feste und Bräuche in Deutschland. – Berlin: Sammüller Kreativ GmbH, 2004.
2. Wolf H.M. Die schönsten Bräuche Rituale und Traditionen. – Berlin: Insel Verlag, 2018.
3. Angelika Feilhauer. Feste feiern in Deutschland, Sanssoici im Verlag Nagel & Kimche AG. – Zürich, 2000.